

10 40359  
09

BOR EKAN-DA

YO'Q EKAN ...



# Bo'ri, Tulki va It

Kunlardan bir kuni tulki tovuqxonaga kirib maza qilib tovuqlarni yebdi-da, egasiga sezdirmay juftakni rostlab qolibdi. Tulki o'lgudek chanqabdi. Suv ichay deb rosa



Aksaray Mədəniyyət

2018/19

N 100

MK

qidiribdi-yu, lekin hech qayerdan bir qultum ham suv topolmabdi. Tashnalikdan o'lar holatga yetganda quduq oldiga yetib boribdi. Tulki suv toparmas degan umidda hech





narsani o'ylamay, quduq boshidagi chelakka o'zini otibdi. Lekin uning og'irligidan chelak quduqqa tushib, ikkinchi chelak esa yuqoriga ko'tarilibdi.

Shu mahal ro'paradan bo'ri o'tib borayotgan ekan. U quduqning tagidagi tulkini ko'-ribdi-da:

— Nima qilib u yerga tushib qolding,  
singiljonim? — deb so'rabdi.





— Bu yerda baliq juda ko'p ekan,  
shularni tutgani tushdim, akajon. Agar  
ishonmasang, tush, o'z ko'zing bilan ko'ra-  
san. Eh, akajon, bularning qanday mazali

va yumshoqligini aytmaysanmi, — deya  
javob qilibdi tulki.

— O'zi nima gap, singiljonim? Meni um-  
ringda birinchi marta ovqatga chaqiryapsan.  
Ilgarilari sira bunday qilmasding, — debdi bo'ri.





— Do'stim, agar mening aytganlarimga shubha qilayotgan bo'lsang, chelakning ichiga qaragin, katta baliqni ko'rasan, — debdi mug'ambir tulki.

Bo'ri tulkinining gapiga ishonib, bir sakrab, chelakka tushibdi. Chelak g'irilla-gancha pastga tushib ketibdi. Ikkala chelak o'rtada uchrashganida, bo'ri ko'r-



saki, tulki tepaga ko'tarilayotgan mish. Shunda u ajablanib:

— Yo'l bo'lsin? — deb so'rabdi.  
— Bizning hayotimiz ana shunaqa, bami soli zinapoyaning o'zi, biri ko'tariladi, ik-





kinchisi tushadi, -- makkorlik bilan javob beribdi tulki.

Bo'ri quduqning tagiga tushib ketayotganida, tulki eson-omon yerga sakrab

chiqibdi. O'z makkorligidan faxrlanib endi yo'lga tushmoqchi bo'lib turgan ham ekanki, to'satdan oldini to'sib turgan itga ko'zi tushibdi.



— Xo'sh, yo'l bo'lsin? Bu yerda nima qilib yuribsan? — deb so'rabdi it.

— Men bo'ridan boplab o'chingni oldim,  
— deya maqtanishga tushibdi ayyor tulki.



— Juda to'g'ri qilgansan, bo'ri allaqachon o'limga mahkum qilingan. Lekin bilasanmi, men yolg'on gapirganlarni jinimdan battar yomon ko'raman, sen ham qilmishingga yarasha jazongni tortishing kerak, — debdi it.





Ana shunday qilib, it tulkiga tashlanibdi,  
lekin rahmdillik qilib, o'ldirmabdi, faqat dumini  
yulib olibdi, xolos.

BOR EKAN-DA

YO'Q EKAN



# Bo'ri, Tulki va It

*Uchinchi nashri*

*Rassom Yulay Gabzalilov*

*Muharrir Abdurahmon Akbar  
Rasmlar muharriri Yasharbek Rahimov  
Texnik muharrir Yelena Tolochko  
Musahhiha Muhabbat Xalliyeva*

Litsenziya raqami Al № 163. Bosmaxonaga berildi 05.06.2012. Bichimi  
70x84<sup>1/16</sup>. Offset qog'ozsi. Shartli b. t. 1,09. Nashr b. t. 1,16. Jami 5000  
nusxa. Shartnoma № 10-2012. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma  
№ 104-12.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpion nomidagi nashriyot-  
matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'qituvchi» nashriyot-  
matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100206, Toshkent, Yunusobod dhasasi,  
Yangi shahar, 1.

УДК: 398.21-053.2

КВК 82.3(50')

Б 99

Б 99     **Bo'ri, Tulki va It:** — o'zbek xalq eraklari. — Toshkent:  
Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. —  
16 b. (Bor ekan-da, yo'q ekan.)

ISBN 978-9943-05-482-0

УДК: 398.21-053.2

КВК 82.3(50')

© Cho'lpion nomidagi NMIU, 2012



ISBN 978-9943-05-482-0



9 789943 054820